



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”

10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



Наират болғай یردی رعایت
کری شریف توقا شاندین
کلم الشی علی قدر عقولم
آندین خبر پر

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamajonov S. Uslub jilolari. T. : Adabiyot va san'at, 1972
2. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015.pp. 40-43
3. Matyakubova T. R. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 120-122
4. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006. – 160 b.
5. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
6. G'afur G'ulom. Kechmish va kechirmishlarimdan [Avtobiografiya] // Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983
7. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.11. – T.: Fan, 1989
8. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.12. – T.: Fan, 1990.
9. Hayitmetov A. Mumtoz adabiyotimiz bilimdoni // Adabiy merosimiz ufqlari. – T., 1997.

IKKI TURKMAN HUKMDORI IJODI VA ALISHER NAVOIY

Nosir JO'RABOYEV,

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/OYLW7204

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlari asosida Qoraqo'yunli turkmanlar sultoni Jahonshoh hamda Oqqo'yunli turkmanlar hukmdori Sulton Ya'qublar ijodi haqida so'z yuritiladi. Ma'lumki, Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasining yettinchi majlisida temuriy shoirlar qatori ikki turkman sultoni ijodi haqida to'xtalib, ularning she'rlariga o'zining yuqori bahosini bergan.

Kalit so'zlar: Hukmdor shoirlar, zullisonayn shoir, Kamoliddin Binoiy, Qoraqo'yunlilar saltanati, Oqqo'yunlilar saltanati.

THE CREATION OF TWO TURKMAN RULERS AND ALISHER NAVAII

Abstract. This article examines the literary contributions of two prominent Turkmen rulers, Jahonshah of the Korakoyun Turks and Sultan Yaqub of the Akkoyun Turks, through the lens of the works of the great poet and thinker Alisher Navoi. In the seventh session of his Majolis un-Nafois, Navoi offered a critical commentary on the poetry of these Turkmen sultans, alongside that of various Timurid poets, and provided high praise for their literary achievements. The article explores how Navoi's assessments highlight the significance of these rulers in the context of Turkmen and Timurid literary traditions.

Keywords: Ruling poets, Zullisonayn poet, Kamoliddin Binoi, Karokoyun Empire, Akkoyun Empire.

Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, 1408-yil 21-aprelda Janubiy Ozarbayjondagi Sardrudda Qora Yusuf boshliq qora qo'yunli turkmanlar va Mironshoh rahbarligidagi temuriylar o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Jangda Mironshoh Mirzo halok bo'ladi hamda Qora Yusuf turkman g'alabaga erishib, Tabriz va butun Janubiy Ozarbayjonni egallaydi.

1410-yili Oq qo'yunlilar davlati sultoni Qora Usmon Sharqiy Anatoliyadan Arzinjonga – Qora Yusufga qarshi urush harakatlarini boshlaydi. Bundan foydalangan Ahmad Jaloyir Tabrizni egallab oladi. Qora Yusuf qo'shinini Anatoliyadan qaytarishga majbur bo'ladi. 1410-yil 30-avgust kuni Tabriz yaqinidagi jangda Ahmad Jaloyir

qo'shini qaqshatqich zarbaga uchraydi. Jangning ertangi kuni Ahmad Jaloyir qochayotganda tutib olinib, o'g'illari bilan qatl qilinadi. Tabriz uzil-kesil Qora qo'yunlilar davlatiga qo'shib olinadi, ko'p o'tmay Bag'dod ham qo'lga kiritiladi. Shunday qilib jaloyiriylar davlati tugatilib, Qora qo'yunli turkmanlar saltanati tashkil topadi [Vohidov, 2013:351].

Jahonshoh ibn Qora Yusuf (1397-1467) Qora qo'yunlilar saltanatining qudratli hukmdorlaridan biri bo'lgan. Manbalarda Jahonshoh Turkman ham deyiladi. Iroq va Ozarbayjonda 1437-yildan boshlab, Shoxruh Mirzoning vassali sifatida hukmronlik qilgan. 1447-yilda Shoxruh Mirzo vafotidan so'ng mustaqil siyosat yuritgan. 1467-yilda bo'lgan jangda Oqqo'yunlilar hukmdori Uzun Hasandan mag'lubiyatga uchrab qatl etilgan.

Jahonshoh Mirzo zullisonayn shoir bo'lib, turkiy va forsiyda she'rlar yozgan. Faxriy Hiraviy ta'biri bilan aytganda, *"Jahonshoh Mirzo Turkmonning ham yaxshi tab'i bor edi va she'rni yaxshi aytar edi va Haqiqiy deb taxallus tanlagan edi. Va filhaqiqat, nazmda u darvishona va tasavvufga yaqindir* [Hiraviy, 2014:82]". Shohlar shoiri devon tuzgan. Alisher Navoiy ham shoir "Haqiqiy"ning ijodi bilan qiziqqan. Jahonshoh Mirzo Navoiyning "Majolis un-nafois"ida ham e'tirof etilgan: *"Jahonshoh Mirzo – dag'i she'r aytur erdi. Bu maqta' aningdurkim:*

*Az lutfi do'st yoft Haqiqy murod dil,
Be jiddu jahdi toatu be minnati amal.*

(Mazmuni: Toatda ortiqcha tirishqoqlik va ish(lar)da minnatsiz do'stning lutfi tufayli dil Haqiqiy murod hosil qildi [Navoiy, 1966:172].)

Shohlar shoiri asarlarining ikki qo'lyozmasi ma'lum bo'lib, biri Britaniya muzeyida, ikkinchisi Yerevandagi Qo'lyozmalar institutida saqlanadi. Bizgacha Jahonshoh Haqiqiyning turkiy tildagi 91 g'azal va 36 ruboiysi, forsiydagi 116 g'azal va 11 mustazodi yetib kelgan.

Jahonshoh Haqiqiy Abdurahmon Jomiyga she'rlaridan namunalar jo'natgan. Jomiy uning she'rlari bilan tanishgach, 28 baytdan iborat she'riy maktub yo'llagan. Shohlar shoirining she'rlarida o'sha davrdagi hurufiylik ta'limoti, ayniqsa, Nasimiy ijodining kuchli ta'siri seziladi [Navoiy, 2014:83].

Jahonshoh yuksak she'riy iste'dod sohibi bo'lib, Tabrizdagi saroyida ijod ahlini to'plab, adabiy anjumanlar o'tkazgan.

Jahonshoh Mirzo temuriy Ibrohim Mirzo ibn Alouddavlani yengib, Jurjon va Xurosonni viloyatlarini, 1458-yil iyunda esa poytaxt Hirotni qo'lga kiritadi. Shundan so'ng, Sulton Abusaid Mirzo bilan sulh tuzib, Jahonshoh Hirotni tark etadi. Shunda uning o'g'li Pir Budog' Mirzo o'zi bilan hirotlik shoirlarni Tabriz va Sheroz saroylariga olib ketadi: *"Oxir ul-amr, Sulton Abusaid yetishib, sulh tuzib, yana Tabrizga yuzlandi. U mahalda Pir Budog' Mirzoga ko'plab xushtab' mardum hamroh edi* [Hiraviy, 2014: 83]". Alisher Navoiy ham Pir Budog' Hirot shoirlarini o'zi bilan Sherozga olib ketganda, shoir Vali Qalandar ham ular orasida bo'lganligini aytadi [Navoiy, 1966:48]. Demak, shoir Vali Qalandar Jahonshohning Tabriz yoki uning o'g'li Pribudog'ning Sheroz saroylaridagi mushoirlarda qatnashgan. Binobarin, Navoiy ham 1458 yilda Hirotida Jahonshoh Mirzo bilan uchrashgani yoki Pir Budog' Mirzo Sherozga shoirlarni olib ketganda, u bilan borgani ehtimoldan holi emas. Albatta, xurosonlik nazm ahlining Qora qo'yunlilar saltanatiga eltishdan maqsad ham hukmdor huzurida shoirlar ishtirokida adabiy kechalar tashkil etish va mushoirlalar uyushtirishdan iborat bo'lgan.

O'z davrida Alisher Navoiy bilan yaqin do'stona aloqa o'rnatgan turkiy hukmdorlardan yana biri Sulton Ya'qub Oqqo'yunli Turkmandir. Shoirilar sultoni o'z asarlarida adabiyot ahli va she'riyat anjumanlarini xush ko'rgan Ya'qub podshoh nomini cheksiz hurmat bilan tilga olgan. Darhaqiqat, Faxriy Hiraviyning yozganidek, *"Alisher Navoiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro" kitobida keltirganki: Sultonlar orasida u kabi pisandida zot va hamidasifat va darveshsifat va foniymashrab yigit kam bo'lgan [Hiraviy, 2014:81]"*.

Tarixga nazar solsak, Oqqo'yunli (oq qo'ylilar) turkmanlar mamlakati (1378-1508) XIV-XV asrlarda Kurdistonda hamda Kavkazoldi va Kichik Osiyoning ba'zi mintaqalaridagi birlashgan o'g'uz (turkman) qabilalari ittifoqi sifatida tashkil topgan edi. Bayrog'ida oq qo'chqorning rasmi bo'lgan Oq qo'yunlilar Vizantiya solnomalarida Anatoliyaning sharqiga ko'chib kelishlaridan boshlab, ya'ni 1340-yildan boshlab tilga olinadi.

Amir Temur 1402-yili Usmonlilar imperiyasiga qarshi jangda ittifoqchi sifatida qatnashgan Oqqo'yunlilar davlati asoschisi Qora Usmon Turkman(1378-1434)ga Diyorbakr viloyati (hozirgi Turkiyaning Dajla daryosi oqimi)ni in'om etadi.

Qora Usmonning nabirasi Uzun Hasan (1423-1478) akasi Jahongirga qarshi urushda g'alaba qozonib, davlatni mustaqil boshqara boshlaydi. 1467-yilda esa u Qora qo'yunli (qora qo'ylilar) turkmanlar hukmdori Jahonshohni mag'lub etib, Oq qo'yunlilar saltanatini tuzadi va poytaxtni Tabrizga ko'chiradi. Shimoliy Eron, Ozarbayjon va Iroq hududini egallagan Uzun Hasan Oqqo'yunli podshohlik maqomini egallaydi. U "Qonunnoma" nomli qonunlar to'plamini ishlab chiqadi va qator islohotlar o'tkazadi. Biroq, 1473-yilda Uzun Hasan Terjondagi jangda Usmonlilardan mag'lubiyatga uchraydi. 1480-yilda esa uning o'g'li Ya'qub podshoh davrida Sulaymonbek boshchiligidagi Oqqo'yunlilar armiyasining turklar bilan muhorabada qo'li baland keladi.

Hasanbekdan so'ng taxtga avval Xalilbek, 1478-yilda esa 15 yashar Ya'qubbek (1463-1490) o'tiradi. Sulton Ya'qub Ozarbayjon, Iroq va Eronning bir qator shaharlarini egallab, Oqqo'yunli turkmanlar davlati hududiga ko'plab mulklarni qo'shib oladi. Sulton Ya'qub davrida Oqqo'yunlilar mulki Sharqning qudratli davlatlaridan biriga aylanadi. 1489-yili Sulton Ya'qub davrida maslahatchi Sayfiddin Iso tomonidan moliyaviy islohotlar boshlanadi. Bu islohot avloddan avlodga meros suyurg'ol tizimini o'zgartirib, yangidan yerlarni ro'yxatga olishni ko'zda tutardi. Suyurg'oldan ayrilib qolishni istamagan mulkdorlar islohotga keskin norozilik bildirishadi. 1490-yili Sulton Ya'qub va ukasi Yusufbek onasi tomonidan zaharlab o'ldiriladi va islohotlar ham to'xtatiladi: Tarixchi va shoir Kamoliddin Binoiyning yozishicha, *"Ya'qub podshoh 896-yili 20-30 yoshlar orasida vafot etgan:*

Umri on Xusravi baland janob,

Bud dar ashari seyyo'min zi shabob.

(Mazmuni: Ul olijanob podshohning umri, yigitlikning uchinchi o'nligida edi.)

Podshohning vafoti ta'rixini Mavloni Binoiy shunday aytgan:

Shoh Ya'qub onki, shohonash,

Hama chokar shudandu vay xusrav.

Bud Kayxusravi zamon xesh,

Rafti ta'rix mond "Kayxusrav".

(Mazmuni: Shoh Ya'qub shunday odam ediki, barcha shohlar unga xizmatkor, u esa podshoh bo'lgan edi. O'z zamonining Kayxusravi edi, ketdi-yu ta'rix "Kayxusrav" bo'lib qoldi).

Ya'qub podshohning bu dunyodan ko'chish ahvoli (o'limi) to'g'risida shunday naql qilinadi. Onasi Ya'qubning ukasi Yusufni ko'proq yaxshi ko'rar va uning podshoh bo'lishini xohlar ekan. Shu niyatda sharbatga zahar solib, Ya'qubga beradi. Ya'qub o'zi ichgan, o'sha sharobdan mehmon qilish uchun akasiga ham nasiba chiqartirgan. Ukasining onasi qilgan bu suiqastdan xabari yo'q edi – bilmasdan u ham ichadi va onasi huzuriga ham tatib ko'rish uchun yuboradi. Onasi ham "o'zing ichirgan sharbatdan ichirsan" mazmuniga ko'ra, zaharlangan sharbatdan ichadi va "qazo yetsa – ko'zdan nur qochadi" hukmiga binoan hayotdan ko'z yumadi. Mavlono Binoiy ular marsiyasida shunday she'r aytgan:

Na az Yusuf nishon didam, na az Ya'qub osore,

Azizon, Yusuf a-r go'm sho'd, che shud Ya'qubro bore?

(Mazmuni: Na Yusufdan bir nishon topdim, na Ya'qubdan bir iz, azizlar, Yusuf agar yo'qolgan bo'lsa, Ya'qubga na bo'ldi, bu gal [Nisoriy, 1993:72]?)"

1508-yilda esa so'nggi Oqqo'yunlilar saltanati sultoni Murodni yengib, Ismoil Safaviy bu saltanatga chek qo'yadi.

Bu sulolaning mashhur hukmdorlaridan biri – Sulton Ya'qubdir. Sulton Ya'qubning shoir bo'lgan hamda go'zal she'rlar yozgan:

Lashkar kasham az ashku baroram alam az oh,

Xoham girift ruyi zaminro badin sipoh.

Ya'qubvor muntaziri ruyi Yusufam,

Hastam g'ulomi Mahdivu mastam z-jomi shoh.

(Mazmuni: Ko'z yoshidan lashkar tuzaman va ohdan bayroq tikaman, Shu singari sipoh bilan yer yuzini olishni istayman. Ya'qubvor Yusufning yuziga intizorman, Mahdining g'ulomimanu shohning jomidan mastman [Hiraviy, 2014:81-82].)

Darhaqiqat, "ma'lumki, Hirot Temuriylarning (1370-1506) so'nggi vakili Husayn Boyqaro (1469-1506) davrida gullab yashnagan. Temuriylarga qo'shni bo'lgan zamindagi Oqqo'yunlilar sulolasi ham madaniyat va san'at taraqqiyotiga katta e'tibor bergan [Navoiy, 2015:13]". Oqqo'yunlilar saltanati hukmdorlari huzurida saroyda to'plangan shoirlar ishtirokida adabiy majlislar o'tkazilgan. Oqqo'yunlilar mamlakati sultoni Ya'qub boshchiligidagi adabiy muhitda Faxriy Hirotiyning yozishicha, ko'plab shoirlar ijod qilgan. Shulardan 40 nafari haqida Faxriy Hirotiy tazkirasida ma'lumot berib o'tgan. Demak, shoirlarning soni yuzga yaqin yoki undan ortiq bo'lgan bo'lishi mumkin. "Sir emaski, Navoiy Qoraqo'yunli va Oqqo'yunli davlatlaridagi adabiy muhitdan ham xabardor bo'lgan. "Majolis un-nafois"ning yettinchi majlisida barcha temuriy podshoh va shahzodalar qatorida shu ikki sulola vakillari nomini Qoraqo'yunlilardan Jahonshoh Mirzoni, Oqqo'yunlilardan Sulton Ya'qubni sanab o'tadi va ularning she'rlaridan misollar keltiradi [Navoiy, 2020:10]". Shuningdek, Alisher Navoiy ham Oqqo'yunlilar adabiy muhiti namoyandalari, ya'ni Sulton Ya'qub saroyi shoirlari haqida ham qator ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Navoiy "*Shayx Najm – ham sovaliqdur va Qozi Isog'a qarobatdur. Sulton Ya'qub qoshida andin maxsusroq va noyibroq kishi yo'q erdi. ...Fuqaro va masokinning ishiga ko'p madadkorliqlar qildi. Andoqki yaxshi oti atrof va javonibqa bordi. Bu faqir(Navoiy) bila dag'i g'oyibona muhabbat va yorliq va iniliq qoidasin mar'i tutti*", degan va uning she'ridan namuna keltirgan. Shuningdek, "*Qozi Isoni Sulton Ya'qub ul martabada ta'zim va tarbiyat*

qildikim, hech podshoh ahli aloqadin hech kishini oncha tarbiyat qilganini tarixlarda ko'rilmaydur. Derlarkim, she'rg'a andoq mash'ufdurkim, kunda o'n g'azal, balki ko'proq ham aytur ermish [Navoiy, 2012:408]". Albatta, Navoiy zikr etgan ham qozilik, ham shoirlik bilan shug'ullangan Qozi Iso Sulton Ya'qubni hamisha adolatga undagan. Qazvinij u adolat bilan ko'pchilikning qalbida hurmat imoratini qurgan edi, deb yozgan. Som Mirzo Safaviy (1517-1576) shoirlarga bag'ishlangan "Tuhfayi Somiy" tazkirasida Abdurahim Xorazmiyni Mavlono Anisiy nomli shoir sifatida tanishtirib, shunday ma'lumot keltirgan: "Mavlono Anisiy asli Xorazmlikdir. Sulton Ya'qub xizmatida bo'lgan. Nasta'liq xatini yuksak mahorat bilan yozgani uchun xalq uni Sultonali Mashhadiydek deb bilardi. Anisiy 1460-1494 yillar oralig'ida, ya'ni o'ttiz yildan ko'proq davr mobaynida Oqqo'yunlilar saroyida xizmat qilib, sulola hukmdorlari uchun bir necha qo'lyozmalarni ko'chirgan. Qozi Ahmad xattotlar va rassomlar to'g'risidagi risolasida yozishicha, Anisiy taxallusiga Oqqo'yunlilar hukmdori Sulton Ya'qub uni o'ziga yaqin tutib anis-do'st deb atagani asos bo'lgan. Yana ko'pgina shoirlar Anisiy shogirdlari bo'lib, uning uslubiga ergashib she'r bitishgan. Demak, (Sulton Ya'qub saroyi shoiri) Anisiy – Abdurahim Xorazmiy yaxshi shoir ham bo'lgan ekan. Anisiy forscha she'rlardan iborat devon yaratib, uni 899/1493-94 yili o'zi ko'chirgan va bu dastxat nusxa bizgacha yetib kelgan [Navoiy, 2015:18-19]". Forsiynavis shoir Mavlono Shahidiy (1431-1530) bir necha muddat Sulton Ya'qubbek adabiy majlisi musohibi bo'lgan [Navoiy, 2016:299]: "(Mavlono Shohidiy) Oshuftavash va devonasor kishi ko'runur. Ammo bu tariyqlari ja'li rang ham bor. Iroqdin Xurosonga ikki navbat kelib bordi. Badihasi ravondur va taassubi g'olib va tab'i hazlg'a ko'p rog'ibdur [Navoiy, 1966:164]". "Majolis un-nafois"ning tarjimoni Muhammad Qazvinij Mavlono Shohidiy Iroqdan Xurosonga kelganda, Abdurahmon Jomij suhbatiga musharraf bo'lgani va Navoiy bilan suhbatlashganini yozgan [Navoiy, 2016:299]. Shoir Shahidiy Qumij Sulton Ya'qub zamonining "Malikush-shuaro"si unvonini ham olgan. Navoiy Oqqo'yunlilar saltanati shoirlaridan Mavlono Humoiy haqida shunday yozgan: "Ammo ko'prak avqot (vaqt), balki hamisha Iroqda bo'lur. Bir qatla kelib ketti. Bag'oyat faqir va kamsuxan va nomurod kishi ko'runur. Ammo nauzu billoh andinkim, bir majlisda anga bir ayoq bersalar, ul arbada va purgo'yliqkim, andin zohir bo'lur, aning sharhi mutaazzirdur [Navoiy, 1966:164]". "Shafi'iy" taxallusi bilan ijod qilgan zullisonayn shoir Ziyo Tabrizij Oqqo'yunlilar sulolasidan Ya'qub Sulton saroyida bir muddat xizmat qilib, umrining oxirida Tabrizga qaytib keladi [Navoiy, 2016:192]. Sulton Ya'qub davri adabiy muhitining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, uning atrofida amaldorlar, hokimu ziyolilar, saroy ayyonlarining barcha-barchasi she'r aytgan, shoir bo'lgan. Bu birinchidan.

Ikkinchidan, manbalarda Oqqo'yunlilar saltanatining eng mashhur shoirlaridan biri sifatida Darvesh Dehakiy tilga olingan. "Majolis un-nafois"da Navoiy Darvesh Dehakiy haqida yozar ekan, "*Derlarkim, abdolvash kishidur. Devoni doyim beliga bog'liqdur. Har bayti, yo ma'nisig'a ehtiyoj bo'lsa, ko'rgali filhol devonin chiqarib, topib ko'rguzur. Filvoqe' faqir*(Navoiy)ning she'rga shuurum bor ul tarafdin(Oqqo'yunlilar yurtidan) aning abiotidin yaxshiroq nazm kelmadi" deydi. Muhammad Qazvinij Dehakiy haqida quyidagilarni qayd etgan: "Sulton Ya'qubxon Darvesh Dehakiyni huzuriga chorlaganda, u (majlisda) bir baytni o'qibdi. Uning birinchi misrasi ma'nosi shunday ekan, "Agar uning o'qi oldimga yo'nalsa, orqamga qalqon tutaman". Buni eshitgan shoh taajjub qilib, o'qdan saqlanish uchun orqaga qalqon tutish nimasi? – deganda, shoir: "Sabr qiling, ikkinchi misrani eshiting" debdi: "Toki uning o'qi –

novakining chiqib ketish yo'li bekilsin". Shoh shunda lol qolib, shoirga "Nimaki tilaging bo'lsa aytgil, bosh ustiga bajaraman", debdi. Shoir "Do'stga do'stdan yaxshiroq narsa yo'q", deya javob beribdi. Shoh yana fikrini qaytarganda, shoir: "Bog'larimdan olinayotgan xirojdan ozod qilsangiz", debdi. Shoh buni bajaribdi." "Badoye ul-vaqoye" da yozilishicha, shoir Binoiy Sulton Ya'qub bilan uchrashuvi haqida hikoya qilgan. Mavlono Binoiyning aytishicha, "Tabriz viloyatiga yaqinlashdik. Ya'qubbek mulozamatiga musharraf bo'ldik. Bu dilnavoz shoh dedi: "Bizning diyorda sizlarga nimalar yoqdi?" Men: "Darvesh Dehakiy suhbatidan o'zga hech narsa yoqmadi", dedim. Darveshni madh va vasf qildim. Shoh Dehakiyni huzuriga chorladi.

(Adabiy majlisda Dehakiy) Shoh bilan uchrashganda (yo'lda yozilgan) g'azalni taqdim etdi. Majlisda yuz chog'lik kishi o'tirgandi. Majlisda g'azalni tinglab, hammaning kayfiyati ko'tarildi. Podsho so'radi: *"Hazrati Darvesh faqirdan ne-ne talab qiladilar?"* Darvesh: *"Podshohimizning umrini tilaymiz", dedi".* Binoiy yuqorida misol tariqasida keltirilgan Sulton Ya'qub huzuridagi ana shunday majlislarda ko'p marotaba bir necha yil mobaynida ishtirok etgan. Albatta, bunday ma'lumotlar Ya'qub Mirzoning bir tomondan ijod ahlini har tomonlama qo'llab quvvatlatganini, qadrlaganini, ikkinchi tomondan she'riyatni chuqur tushunganini ko'rsatadi. Mavlono Binoiy Hirotga qaytgach, Alisher Navoiy uni mushoira majlisiga taklif etib, shoirning Sulton Ya'qub hamda Oqqo'yunlilar mamlakati nazm ahli haqidagi taassurotlari bilan qiziqadi: *"Binoiyni Iroqda Sulton Ya'qub tarbiyat qilibdur. Necha muddatdan keyin yana yonib Hirotga kelibdur. Mir Alisher kishi yuborib chorlab olib kelibdur. Lutfu marhamat birla oshnolik qilibdurlar. Va in'omi ehson ham qilibdurlar. Va (oldingi) o'tgan voqeag'a uzr aytibdurlar. Ondin Mir Alisher so'rabdurki, Iroq viloyati (Oqqo'yunlilar saltanati) qandoq joy ekan, deb? Binoiy aytibdilarki, iroqiylarning bir qismi ishi manga xo'b ko'rindiki, ular aslo turkiy she'r aytmas ekanlar. Mir Alisher aytilarki, siz hanuz hushyor bo'lmagan ekansiz, mundaq taarruzni tark qiling [Haydar, 2011:287]".*

Uchinchidan, Oqqo'yunlilar saltanati va Ya'qub podshoh huzuriga xurosonlik Sayid Kozimiy, Xurramiy, Mavlono Shayxiy [Navoiy, 1966:45] kabi ko'plab shoirlar borib, saroydagi mushoiralarga qatnashishgan. Jomiy haj safaridan qaytishda Tabrizda Oqqo'yunlilar hukmdorlari bilan muloqotda bo'lgan, "Salomon va Absol" dostoni Sulton Ya'qubga bag'ishlangan. Kamoliddin Husayn Iroqqa borganida Ya'qub mirzo uni hurmat bilan kutib olib, Biyobong degan har yili yuz ming oltinga yaqin daromad keltiradigan joyni suyurg'ol qilib beradi. Lekin bu oddiy va sodda, darveshtabiat kishi in'omni qabul etmay, yurtiga qaytadi. Mir Sayid Hasan Abivardiy Husayn Boyqaroning jiyani Kichik Mirzo bilan hajga yo'l olganda, Makkai Mukarramaga ham bormay, Oqqo'yunlilar saltanati saroyida qoladi. Shundan so'ng Navoiyning yozishicha, *...Rum va Misr va Halab balki ul tarafning ko'prak mamolikiga musofirat qilib, olti-yetti yil qolib, arabiy tilni ravon qilib, mutabarruk mazorotg'a yetib, balki Makka va Madinag'a musharraf bo'lib, ko'p azizlar suhbatin topib, Xurosong'a keldi. Borurda aql va tab'i qillatig'a mat'un erdi, kelganda ikkalasin tamom qilib keldikim, hech kishiga mahalli ta'n va tashne' bo'lmag'ay. Bir bayt moddasida aqli va ta'bi ne miqdor ekanin isbot qilibdur. Ul bayt budurkim:*

Ey zi mehri orazat gardun g'ulom,

Yusufero kardaand Ya'qub nom.

(Mazmuni:Yuzing quyoshiga dunyo kuldir, Yusufga Ya'qub ot qo'yibdilar.)

Ta'bi natijasi bu bo'ldikim, mundaq bayt aytti va vuquf ahli bu baytning ma'nisi yo'qtur, nomavzundur deganda, emasdur, deb bahs qildi va aql natijasi bukim, Xuroson

ahlin tajhil qilib, bu baytin xubliqg'a bitib, Iroqg'a Ya'qub Mirzo o'rdusig'a yibordi [Navoiy, 1966:130]". Abivardiy Xurosonga kelganda ham, oqqo'yunlilar hukmdori bilan maktub yozishib turgan.

"Boburnoma"da (yuqorida ta'kidlaganimizdek,) shoir Kamoliddin Binoiyning Oqqo'yunlilar saltanatiga, ya'ni Ya'qubbek saroyiga 1487-yilda borganligi zikr etilgan: *"...Iroq va Ozarbayjonga Ya'qubbek qoshig'a bordi. Ya'qubbek qoshida yomon emas edi, harifi majlis(ulfat) bo'lib edi. Ya'qubbek o'lgandan so'ng ul viloyatlarda turmay Hiri(Hirot)ga qaytdi"*. Ya'ni, Sulton Ya'qub Binoiyni o'z saroyida "harifi majlis"-suhbatdosh lavozimiga tayinlagan.

To'rtinchidan, Navoiyning she'rlari o'z davrida Oqqo'yunlilar saltanatida juda mashhur bo'lgan. Bu davlatning Tabriz va Sherozdek markaziy shaharlarida shoirlar sultonining g'azallari keng tarqalgandi. Navoiyning ta'biri bilan aytganda:

*Olibmen taxti farmonimga oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez,
Ki, qilmishdur nayi qilkim shakarrez.*

Hatto Navoiyning Oqqo'yunlilar mamlakatidagi muxlislari tomonidan 1471-yilda (xattot Abdurahim Xorazmiy) shoirning devoni tuzilgan: *"...Ammo xaloyiq arosida ming bayt – ikki ming bayt ortug'roq, o'ksakrakkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi* [Navoiy, 1965:469]". Haqiqatan, mazkur hududlarda Navoiyning she'rlarini shoh ham, gado ham birdek sevib mutolaa qilgan. Bu haqda Xondamir shunday deydi: *"Hech qanday takallufsiz va lofsiz aytish mumkinki, bir oz vaqt ichida yuksak san'atkorlik bilan yaratilgan, jozibali baytlar, go'zallik va ustalik bilan bezalgan tizmalar ziynatining shuhrati shunday darajada yetdikim, ulug' martabali yuqori ilmparvar sultonlar dunyoning uzoq shaharlarida so'z ustalari bo'lgan maxsus elchilarni Hirotga yuborib, Amir (Navoiy) hazratlarining balog'atli so'zlarin kulliyoti (to'plami)ni olib ketishni izlaydilar. Arab va Ajam mamlakatlarning atrofidagi go'shanishin darveshlar ham oliy hazrat (Navoiy)ning shavqli she'rlarining havasidan umrlarini o'tkarib, uni juda ko'p harakatlar qilib izlash uchun yuguradilar. Shu jihatdan Xitoy va Xo'tan mamlakatlarning yuqori hududlaridan boshlab, to Rum va G'arb mamlakatlarning quyi chegaralarigacha shoh va gado, yosh va qari, musulmon va kofirlar og'zida Oliy hazratning go'zal tizmalari o'qilaturg'on bo'ldi: butun millatlarning, barcha xalqlarning hukumat doirasida bo'lgan hamma kishilarning ko'ngil sahifalarida va dillarining lavhalarida muborak naqsh bo'lib o'zlashtirildi* [Xondamir, 2015:36]".

Bundan tashqari, Oqqo'yunli turkmanlar mamlakati adabiyotiga Sulton Husayn Boyqaro va Navoiy boshliq adabiy muhitning yaqqol ta'siri sezilib turgan. Tabriz adabiy muhiti namoyandasi Kishvariylar kabi shoirlar Navoiyni o'zlariga ustoz deb bilishgan, shoirlar sultoniga ergashishgan, temuriylar saroyiga havas bilan qarashgan:

*Kishvariylar she'ri Navoiy she'ridin aksik emas,
Baxtina dushsaydi bir Sulton Husayn Boyqaro.*

Darhaqiqat, "Alisher Navoiy ijodi nafaqat o'zbek adabiyoti, balki butun turkiy tildagi ijod ahlini befarq qoldirmagan. Navoiyning o'zi ham Sharq adabiyotining ko'plab vakillari ijodidan ilhomlanganini qayd etib, asarlari bilan o'nlab turkiy qavmlarni qamrab olganini ta'kidlaydi [Djabborov, 2020:22]".

Beshinchidan, bolaligidan shoirlar sultonining she'rlarini o'qib, ulg'aygan Oqqo'yunlilar hukmdori Sulton Ya'qub doimo Navoiyga maktub yo'llab, unga yangi asarlarini yuborishini so'ragan. Navoiy "Xamsatul mutaxayyirin"da bu haqda shunday

yozadi: *“Bir qatla faqir(Navoiy) alar(Jomiy)ning qadimiy devonin Mavlono Abdusamadg’akim, zamonning xushnavislaridindur va xush tab’i ham bor, buyurib erdim va ulcha maqdur takalluflar qililib erdi. Va devon tugagandin so’ngra alar xizmatig’a eltib, muqobala istid’osi qilildi. Alar aytilarkim: “Bir ikki kun munda turdik. Biz miqdore mulohaza qilali. Kotibin xushtab’ kishi derlar. Shoyadki, ehtiyot qilib erkinkim, muqobala qilurg’a ehtiyoj bo’lmag’ay”.*

Ammo Jomiy ko’rib chiqqach, kotibning xatosi sababli kitobda ayrim nuqsonlar ko’zga tashlanadi: “ba’zi yerda biror –ikkiror, balki ortiq ab’yot tark qilibtur”.

Navoiy ustoziga ushbu devon *“muborak qalamingiz bilan isloh topsa, mujibi mubohat va zebu ziynat bo’lur”* deydi.

Gap shundaki, ana shu vaqtda Sulton Ya’qub Navoiydan go’zal asarlar yuborishni so’rab elchi jo’natgan edi: *“Sulton Ya’qub faqirdin kitob tilaganda, andin nafisroq kitobim yo’q erdikim, har misraida ul hazratning muborak qalami kirib erdi va alarning –o’q qudsiy osor anfosi erdi – yibordim va bu bitilgan kayfiyatni sharh bila bitidim. O’qib, xushvaqtlig’lar qilib, qit’ani yod tutib, maktubda minnatdorlik izhor qilib erdilar”.*

Oltinchidan, Navoiy va Ya’qub mirzo o’rtasida shu darajada yaqin do’stlik va birodarlik, piru muridlik aloqalari shakllangan ediki, sulton umrining oxiriga qadar bu munosabatlar davom etdi. Bu hududlarda istiqomat qilgan xalqlar shoirlar sultonini o’zining ijodkori sifatida qabul qilib, she’rlarini sevib mutolaa qildilar.

Sulton Ya’qub she’riy majlislarida Navoiyning yangi she’rlari, devonlari o’qilgan. Davlatshoh Samarqandiy *“Tazkirat ush-shuaro”* ulug’ amir (Navoiy)ning turkiy devoni hukmdorlar hamda akobir yig’inlariga bezakdir”, deya oqqo’yunlilar hukmdori Sulton Ya’qub majlislarini ham nazarda tutgan: *“Bu ulug’ amir(Navoiy)ning she’riy devoni sultonlar va kiborlar majlislarining bezagidir. Navoiyning (insonni) elitar navosi benavo oshiqhlarni to’g’ri yo’lga boshlaydi, muxoliflar uning qalamining qitirlashidan orqaga chekinadilar. Podshohona ohangi Sulton Husaynning mahbubi! Qanday yaxshi ovozaki, turk diyoridan Hijoz hududigacha ketdi! Qanday soz dabdabaki, Nishopurdan Isfahongacha yetdi! Ajam diyori (arab bo’lmagan mamlakatlar) aholisining quloqlari bu ovozdan bitgan va olamning har burchagi bu daryoning durlaridan to’lgan. Tong shabadasi bu xabarni Iroq(Oqqo’yunlilar mamlakati)qa yetkazgandir va falak Tubo daraxtining barglarini bu niholning shoxchalariga aylantirdi [Sirojiddinov, 2011:226]”.*

Darvoqe, yaqinda filologiya fanlari doktori, navoiyshunos olim Aftondil Erkinov tomonidan topilib, fanga olib kirilgan *“Sulton Ya’qub saylanmasi”* aynan oqqo’yunlilar hukmdori adabiy yig’inlarida o’qilgan she’rlar jamlanmasi ham bo’lishi mumkin: *“Sulton Ya’qub saylanmasi, 885/1480-81 yil, ko’chirilish joyi –Tabriz (ehtimol). Kotibi – Abdurahim Xorazmiy al-Ya’qubiy. Saqlanish joyi – xorijdagi nama’lum kolleksiya. Qulyozmada Navoiydan 12 ta she’riy parcha bor. 2019-yili navoiyshunoslikka ma’lum bo’lgan. Biz uni shartli tarzda “Sulton Ya’qub saylanmasi” deb atadik. Sababi qo’lyozma haqida uning kolfonida ayni kitob Sulton Ya’qub uchun “al-intixob” – ya’ni, saylanma tarzida tuzildi deyilgan... Qo’lyozma Oqqo’yunlilar (1378 – 1501) saltanati hukmdorlaridan Sulton Ya’qub (1478-1490) buyurtmasi asosida tuzilgan. Asosiysi, to’plam “Ilk devon” va “Oqqo’yunli muxlislar devoni”dan keyingi, Alisher Navoiy she’riyati ixlosmandlari tomonidan tuzilgan uchinchi to’plamdir [Erkinov, 2021: 201]”.*

Muxtasar aytganda, qoraqo’yunlilar va oqqo’yunlilar saltanatlari hukmdorlari, davlat arboblari va shoirlarining Jomiy va Navoiy bilan bo’lgan yozishmalari-yu

munosabatlarini o'rganish navoiyshunoslikning yangi ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. – T. G'G'ulom nomidagi NMIU, 2012. – B. 408-409.
2. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. T.G'G'ulom nomidagi BAN, 1966. – B. 172.
3. Alisher Navoiy. Oqquyunli muxlislar devoni (1471). (Nashrga tayyorlovchi A.Erkinov). Research institute for languages and cultures of Asia and Africa (ILCAA), 2015. – P. 13.
4. Alisher Navoiy. Oqqo'yunli muxlislar devoni (1471 yil). (Nashrga tayyorlovchilar: A.Erkinov, R.Jabborov). – T. "Sharq" NMAK BT, 2020. – B.10.
5. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. Birinchi jild. – T. Sharq NMAK BT, 2016. – B. 181.
6. Djabborov R. Alisher Navoiy "Oqqo'yunli muxlislar devoni" va uning davr adabiy muhitida tutgan o'rnini. Avtoreferat. – Samarqand, 2020. – B. 22.
7. Erkinov A. Alisher Navoiy devonlarining aniqlangan yangi nusxalari (2010-2021 yillar)/ "Alisher Navoiy va Qo'qon adabiy muhiti" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari (21-22 may 2021 yil). Qo'qon, 2021. – B. 201-211.
8. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. – T. Mumtoz so'z, 2014. – B. 82.
9. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – T: G'G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 36.
10. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. – T. Meros, 1993. – B. 72.
11. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. T. O'zbekiston, 2011. – B. 287.
12. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. T. Akademnashr, 2011. – B. 226.
13. Vohidov Sh. Qodirov A. Sharqning mashhur sulolalari. T. Akademnashr, 2013. – B. 351.

ӘЛЕМ ӘДЕБИЕТІНІҢ АСҚАР ШЫҢЫ *(Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)*

Молдасанов Е.М.,

филология ғылымдарының кандидаты, доцент
Абай атындағы Қазақ ұлттық педагогикалық университеті

Абдувалитов Н.Б.,

педагогика ғылымдарының философия докторы, доцент
Низами атындағы Ташкент мемлекеттік педагогикалық университеті
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/GQTV9858

Аннотация: Бұл мақалада түркі халықтары әдебиетінде шоқтығы биік, ұлы ақын, ойшыл кемеңгер, сөз зергері - Әлішер Науаидың өмірі мен әдеби мұрасы жайлы сөз болады. Ақынның әдеби мұрасының ішіндегі ең танымалысы - "Хамсасына" енген дастандар жайлы деректер берілген.

Түйінді сөз: хамса, дастан, ғазал, нақлия, лирика, проза.

Annotatsiya: Ushbu maqola turkiy xalqlar adabiyotining buyuk namoyondasi, shior ham g'azal mulkining sultoni - Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlanadi. Maqolada shorining adabiy merosining ichidagi eng mashhur asari - "Xamsa"sidagi dostonlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xamsa, doston, g'azal, lirika, proza.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevvver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBLOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622